

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 658(575.1)*

ERGASHEV SANJARBEK SOBIRJON O‘G‘LI

**SANOAT KORXONALARIDA RESURS TEJAMKORLIGINI
TA’MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Burxanov Aktam Usmanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, prof.

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB SANOAT KORXONALARIDA RESURS TEJAMKORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	13
1.1. Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish konsepsiyalari	13
1.2. Ilg'or resurs tejamkor texnologiyalarga asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirishning tashkiliy-mexanizmlari	24
1.3. Jahon mamlakatlarining zamonaviy sanoat siyosati va resurs tejamkor usullardan foydalanish tajribalari	38
Birinchi bob bo'yicha xulosa	54
II BOB SANOAT KORXONALARIDA RESURS TEJAMKORLIKNI TA'MINLANISH HOLATI VA IMKONIYATLARI TAHLILI	57
2.1. O'zbekiston sanoatini barqaror rivojlanish maqsadlari va unga erishish jarayonlari tahlili	57
2.2. Sanoat korxonalarida resurs salohiyati va tejamkor ishlab chiqarish amaliyotini kompleks baholashga yondashuvlar	67
2.3. Sanoat korxonalarining resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish samaradorligi tahlili	90
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	96
III BOB SANOAT KORXONALARIDA RESURS TEJAMKORLIGINI TA'MINLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	98
3.1. Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari;	98
3.2. Sanoat korxonalarida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari asosida resurs tejamkorligiga erishish	109
3.3. Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiyalash asosida resurslarni rejalashtirish tizimlarini (ERP) joriy etish mexanizmini ishlab chiqish	129
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	148
XULOSA	149
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	152

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida resurs tejamkorligiga erishish va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda mavjud resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib, yuqori iste'mol darajasini ta'minlash asosiy muammo bo'lib kelgan. Jahonda resurslar cheklanib borayotgan bir sharoitda resurs samaradorligi va intensivligi indeksi bo'yicha 100 darajada global o'rtacha ko'rsatkich 47 koeffitsiyentni, eng yuqori erishilgan natija esa 64 koeffitsiyentni tashkil qiladi. Hatto, eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar ham barqaror raqobatbardosh bo'lishdan, ya'ni aylanma iqtisodiyot darajasida nolga erishishdan ancha uzoqdir.¹ Shuningdek, oxirgi 50 yilda moddiy resurslardan foydalanish 3 barobarga o'sib, yillik o'sish o'rtacha 2.3%ni tashkil etgan va 2020-yilda jami materiallar sarfi 106,6 milliard tonnadan oshgan. Global tabiiy resurslar iste'moli 2020-yilga nisbatan 2060-yilga kelib 60 foizga oshishi kutilmoqda.²

Jahon mamlakatlari sanoat siyosatining tarixiy evolyutsiyasida iqtisodiyotda barqarorlik, innovatsiyalar va tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanish yondashuvlariga ko'ra boshqalaridan farq qilmoqda. Mazkur yondashuvlar asosida sanoat tarmoqlarida chiqindilarsiz iqtisodiyotni shakllantirish, moddiy va nomoddiy resurslar, ayniqsa energiya samaradorligini oshirish va yashil sanoat va yashil ishlab chiqarish amaliyotlariga yanada ko'proq ahamiyat qaratilishni talab etmoqda. Shunga asosan, xalqaro tadqiqotlarda sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini yaratish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash hamda raqamli transformatsiyalash asosida resurs tejamkorligiga erishish mexanizmini ishlab chiqish ustuvor tadqiqot yo'nalishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni bilan

¹ <https://solability.com/the-global-sustainable-competitiveness-index/the-index/resource-intensity-index>

² <https://www.weforum.org/agenda/2024/03/sustainable-resource-consumption-urgent-un/>

tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 47-maqсад sifatida “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish” hamda 51-maqсад sifatida ““Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun sanoatni barqaror rivojlanish maqsadlari va unga erishish, ilg‘or resurs tejamkor texnologiyalarga asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirish, resurs salohiyati va tejamkor ishlab chiqarish amaliyotini joriy etish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash hamda raqamli transformatsiyalash asosida resurs tejamkorligiga erishish mexanizmini ishlab chiqish orqali eksport imkoniyatlarini oshirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish istiqbollari belgilab berish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 12-oktabrdagi PF–169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 15-avgustdagi PQ–295-son “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 7-avgustdagi PQ–286-son “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 12-oktabrdagi PQ–392-son “Sanoat ishlab chiqarishida xom-ashyo uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha qulayliklarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 10-oktabrdagi PQ–388-son “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-dekabrda 684-son ““140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish va “Sanoat ipotekasi” tizimini joriy qilishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-iyuldagi 300-son “Ayrim sanoat sohalarida ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof-muhitga va aholi salomatligiga salbiy ta’sirini kamaytirish va muqobil energiya resurslaridan samarali foydalanishga

qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda soha faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishida mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.

Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Sanoat korxonalarida resurs tejamliligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Kramer S., Engell S., Van Berkel R., Fadeeva Z., Cainelli G., D'Amato A., Bag S., Rajput S., Singh S. P., Chen M., Mazzanti M., Xu X., Ghobakhloo M.³ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mazkur yo'nalish bo'yicha MDH davlatlari olimlaridan Belyavsev Yu. M., Kulakova Yu. N., Xolodov A. A., Ergashev R., Mirzayev Z., Mamadaliyeva N. A., Sxovrebov E. S., Fayustov A., Antipova O. V., Komarov S. S., Shaxverdov A. S., Kanarev D. V., Anisimova V. Yu. lar tadqiqotlar olib borganlar⁴.

³ Krämer S., Engell S. Energy and Resource Efficiency in the Process Industries //Resource Efficiency of Processing Plants: Monitoring and Improvement. – 2018. – С. 3-18.; Van Berkel R., Fadeeva Z. Role of industries in resource efficiency and circular economy //Waste Management as Economic Industry Towards Circular Economy. – 2020. – С. 171-183.; Cainelli G., D'Amato A., Mazzanti M. Resource efficient eco-innovations for a circular economy: Evidence from EU firms //Research Policy. – 2020. – Т. 49. – №. 1. – С. 103-827.; Chen M. et al. Impact of technological innovation on energy efficiency in industry 4.0 era: Moderation of shadow economy in sustainable development //Technological Forecasting and Social Change. – 2021. – Т. 164. – С. 120-521.; Xu X. et al. Industry 4.0 and Industry 5.0—Inception, conception and perception //Journal of manufacturing systems. – 2021. – Т. 61. – С. 530-535.; Bag S. et al. Key resources for industry 4.0 adoption and its effect on sustainable production and circular economy: An empirical study //Journal of Cleaner Production. – 2021. – Т. 281. – С. 125-233.; Rajput S., Singh S. P. Industry 4.0— challenges to implement circular economy //Benchmarking: An International Journal. – 2021. – Т. 28. – №. 5. – С. 1717-1739.; Ghobakhloo M. Industry 4.0, digitization, and opportunities for sustainability //Journal of cleaner production. – 2020. – Т. 252. – С. 119-869.

⁴ Белявцев Ю. М. Антикризисная политика управления ресурсосбережением на основе концепции маркетинга. Диссертация диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (по отраслям сферы деятельности, в т.ч.: маркетинг) Донецк – 2020.; Фаюстов А. Утилизация промышленных отходов и ресурсосбережение. Основы, концепции, методы. – Litres, 2022.; Кулакова Ю. Н. Формирование и реализация стратегии операционной деятельности промышленного предприятия: теория и методология: дисс.... доктора экономических наук: 08.00. 05/Кулакова Юлия Николаевна //Челябинск. – 2020.; Холодов А. А. Совершенствование организационно-экономического механизма управления ресурсами строительно-монтажной организации на примере ООО" Полус Строй" : дис. – Сибирский федеральный университет, 2021.; Эргашев Р., Мирзаев З. Суть экономического роста

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan Burxanov A. U., Kurbonov X.A., Maxmudov N. M., Xomidov S. O., Avazov N. R., Yodgorova Sh., Xakimov Z. A., Raximov A., Eshonqulov J., Abdullayeva M. K., Xolbekova F. R., Bazarov Sh., Doniyorova Sh. D., Tursunov B. O. va boshqalar to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishgan.⁵

Mazkur izlanishlarda sanoat ishlab chiqarish korxonalarining qiymat tizimini optimallashtirishda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish, resurs xavfsizligini ta’minlash, mahalliy xom ashyolardan foydalanish asosida eksport salohiyatini oshirish, shuningdek sanoat sohasida resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy boshqaruv usullarini amalga oshirish kabi muammolar yechimi borasida tadqiqotlar olib borilgan. Biroq mamlakatimiz olimlari tomonidan sanoat korxonalarini barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda resurs samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi, mazkur o‘rganilayotgan muammoni dolzarbligini asoslaydi.

промышленных предприятий //Экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – С. 898-904.; Цховребов Э. С. Ресурсосбережение: основные этапы становления, теории и методы, тенденции и перспективы развития в промышленности и строительной индустрии России //Вестник МГСУ. – 2020. – Т. 15. – №. 1. – С. 112-158.; Мамадалиева Н. А. и др. Ресурсосбережение-основа экономического роста //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 427-433.; Антипова О. В. Теоретические основы ресурсосбережения //Вестник Академии знаний. – 2020. – №. 1 (36). – С. 19-25.; Комаров С. С., Шахвердов А. С. Управленческие основы ресурсосбережения на современных промышленных предприятиях добывающей промышленности //Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. – 2023. – №. 3. – С. 23-32.; Канарев Д. В., Анисимова В. Ю. Основы управления ресурсосбережением на промышленных предприятиях //Молодежь и будущее: управление экономикой и социумом. – 2020. – С. 122-124.

⁵ Бурханов А. У., Курбанов Х.А. Худудларда маҳаллий бюджетлар даромадлар манбаини кенгайтириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида) // —Иқтисодий ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2018 йил.; Махмудов Н. М., Хомидов С. О., Авазов Н. Р. Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида sanoat тармоқларини ривожлантириш //Монография—Т.:“Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи. – 2020. – Т. 228.; Ёдгорова Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тўқимачилик sanoatини ривожлантириш йўналишлари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 119-130.; Хакимов З. А. Трансформация кластеров “Индустрия 4.0” //Инновации и инвестиции. – 2022. – №. 3. – С. 207-213.; Рахимов А., Эшонкулов Ж. Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий қувватини ошириш механизми //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 390-395.; Абдуллаева М. К., Холбекова Ф. Р. Ўзбекистоннинг яшил иқтисодийга ўтиши ва муқобил энергиядан фойдаланишни жорий этиш механизмлари //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 24. – С. 89-98.; Дониёрова Ш. Д. Саноат корхоналарида иқтисодий ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари ва истикболлари //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 149-153.; Базаров Ш. Иқтисодий ресурслардан самарали фойдаланишда яшил молиялаштириш амалиёти //Science Promotion. – 2024. – Т. 8. – №. 1. – С. 428-431.; Tursunov B. O. et al. Econometric Assessment of Factors Affecting the Development of Small Textile Enterprises in Namangan Province under the Conditions of Development of the Digital Economy //Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2023. – С. 252-259.;